



## ARTICLE INFO

Received: 01<sup>st</sup> October 2022

Accepted: 10<sup>th</sup> October 2022

Online: 17<sup>th</sup> October 2022

## KEY WORDS

rasmiy nutq, norasmiy nutq, adresat, adresant, ijobiy feys, salomlashuv, nutqiy etiket.

Salomlashuv barcha madaniyatlarning kundalik hayotida, ham real, ham virtual dunyoda muloqotga kirishishning asosiy va muhim vositasi hisoblanadi. Suhbatni salomlashmasdan boshlanishini tasavvur qilish qiyin, shu sababli salomlashuv so'zlari har bir xalq madaniyatida kundalik lug'atning muhim qismini tashkil etadi. Sotsiolingvistik nuqtai nazardan qaralganda, ikki shaxs o'rtasidagi salomlashish usuli suhbatdoshning yoshi, jinsiy va ijtimoiy mavqei, shuningdek ular orasidagi munosabatlar haqida ko'plab ma'lumotlar berishi mumkin. Salomlashuv akti millat madaniyatining muhim ijtimoiy omili hisoblanib, salomlashuv leksikasini, birliklarning lug'aviy ma'nosini, qo'llanish o'rinlari va usullarini o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

## FORS TILIDA SALOMLASHUV AKTINING MADANIY ASOSLARI

Jabborova Vasilaxon Baxodirovna

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Lingvistika (fors tili)yo'nalishi

2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7214027>

## ABSTRACT

*Lingvomadaniyat tilshunoslikning muhim aspektlaridan bo'lib hozirgi zamon tilshunosligida tilni ijtimoiy-madaniy soha sifatida o'rganish muhim va dolzarb ahamiyatga ega. Bu o'rinda har bir tilda kommunikativ aloqaning asosiy boshlang'ich qismi bo'lgan salomlashuv akti ta'sirli vazifalarni bajaradi. Har bir til o'rganilayotganda o'quvchi tomonidan eng avval salomlashishga oid so'zlar, leksik birliklar, iboralar o'rganiladi va bu o'zga til nutqi madaniyatini o'zlashtirishning asosiy omili hisoblanadi, shu sababdan rasmiy va norasmiy doiralarda qaysi birliklarni qo'llash, salomlashuv formalarini to'g'ri ifodalash salomlashuv aktini chuqurroq o'rganishni talab qiladi.*

N. Shammas keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, eronliklar birinchi marta ko'rgan odami bilan salomlashayotganda o'ng qo'lini chap ko'ksiga qo'yib, boshini egadilar. Bu imo-ishora salomlashuv yurakdan bo'layotganini ifodalash ramzidir. Eron madaniyatida so'zlovchi nutqiy etiket aktlari jarayonida imo-ishora qilsa, suhbatdoshning ham shunga yarasha javob qaytarishini kutadi.

Fors madaniyatida odatda pastroq maqomga ega bo'lgan odam birinchi bo'lib suhbatdoshiga salom beradi. G'arb madaniyatidan farqli ravishda salomlashish jarayoni uzoq davom etadi. Rasmiy ravishda erkaklarga nisbatan "aya", ayollarga nisbatan "xanom" deb murojaat qilinadi.

سلام "sälam" so'zi barcha yosh guruhlari orasida, turli ijtimoiy qatlamlarda, rasmiy va norasmiy doiralarda, har xil



vaziyatlarada eng ko'p qo'llaniladigan leksik birlikdir. سلام "sālam" so'zi arab tilida "tinchlik" ma'nosini bildiradi, bu so'zning forscha ekvivalenti درود "dorud" ning kelib chiqishi etimologik jihatdan qadimgi fors tilidagi "druvataat" so'ziga borib taqaladi, ushbu so'z asosan radio va teledasturlarda suxandonlar, muxbirlar tomonidan qo'llaniladi. با "ba" old ko'makchisi bilan birikib, با درود "ba dorud" shaklida ham ifodalanadi. Uning با درود و سلام "ba dorud o sālam" yoki درود بر شما "dorud bar shoma" kabi shakllari ham mavjud.

سلام "sālam" ning سلام عليكم "sālam āleykom" va سلامون عليكم "sālamon āleykom" singari variantlari ko'proq rasmiy nutqda yoshi kattalar tomonidan ishlatiladi. سلام عرض سلام عرض شد, "Sālam ārz mikonām"

	Alik olish shakllari
1	Sālam
2	Āssālam
3	āleyk-e sālam
4	sālam āleykom
5	sālamon āleykom
6	vā āleykom sālam vā rāhmātollah
7	vā āleykom sālam o vā rāhmātollah vā barakāto
8	sālam o sād sālam
9	sālam be ru-ye mahet
10	sālam o zāhr-e mar
11	che sālami, che āleyki
12	kodum sālam, kodum āleyk
13	sālam ke sālam

Kun qismlariga qarab ham, turli xil salomlashuv aktlari ishlatilishi mumkin. صبح بخیر "sobh bexeyr" xayrli tong, ظهر بخیر "zohr bexeyr" xayrli kun, عصر بخیر "āsr bexeyr" xayrli kech, شب بخیر "shāb bexeyr" xayrli tun singari birliklar kunning turli qismlarida qo'llanuvchi vaqt bilan bog'liq salomlashuv birliklari

"sālam ārz shod", سلام عرض كردم/ايم "sālam ārz kārd-ām/im", سلام عرض سلام "ārz-e sālam", و سلام عرض آداب "sālom-o ārz-e adab" birliklari ham rasmiy jihatdan qo'llaniladi. سلام عرض شد "sālam ārz shod" oldin salom berilib, eshitilmay yoki ahamiyat berilmay qolganda undov sifatida aytiladi. Fors tilida "sālam" va uning variantlari adresatnig ijtimoiy maqomi, qarindoshlik rishtalari, boshqalarga nisbatan sevgi-muhabbatiga, munosabatiga bog'liq holda adresant tomonidan tanlanadi.

Yuqorida berilgan "sālam" so'zining shakllari muloqot vaqtida adresant tomonidan adresatga beriluvchi shakllari hisoblanadi, javob tariqasida esa quyidagi jadvalda berilgan birliklardan foydalaniladi.

hisoblanadi. Eron xalqi madaniyatida bu birliklarning ishlatilishi hamsuhbatga bo'lgan munosabatning iliqliqi, samimiyligini ifodalaydi. وقت بخیر "vāyt bexeyr" vaqtingiz xayrli o'tsin, xayrli vaqt kunning istalgan paytida qo'llanilib, fors tilida ko'proq rasmiy uslubga xosdir. وقت بخیر "vāyt bexeyr"ning yana mulozamat kuchliroq ifoda etilgan



variantlari ham bor: *وقتتان بخیر* "vāytetan bexeyr vaqtingiz xayrli bo'lsin, وقت جناب عالی بخیر "vāyt jānabe ali bexeyr" janobi oliylarining vaqti xayrli bo'lsin, وقت سرکار خانم بخیر "vāyte sārkarxanom bexeyr" boshliq xonimning vaqtlari chog' bo'lsin va h.k. Bu o'zbek tilidagi "Vaqtingiz chog' o'tsin", "Kuningiz xayrli o'tsin" kabi tilak bildiruvchi iboralarga mazmunan mos keladi. Bu nutq birlilkarida har ikki tildagi pozitiv feys aks etadi.

Forslar o'rtasidagi kundalik muntazam salomlashuvlar bir necha bosqichda amalga oshiriladi, bu "āhvalporsi" deb nomlanadi, bunda boshqalarning sog'ligi, ahvoli, kayfiyati so'ralgandan so'ng, yangiliklar, ishlarining holati so'raladi. Kontekstlardagi o'zgarishlarga bog'liq holda suhbatdoshlarning munosabati yoshi, ijtimoiy maqomiga qarab rasmiydan norasmiyga o'zgarishi mumkin. Odatda birinchi bosqichda salom almashish amalga

oshiriladi, keyin ikkinchi bosqichga o'tilib, suhbatdoshning sog'ligi, yangiliklar, oila a'zolarining sog'ligi haqida so'raladi. Ushbu bosqichda agar uchrashuv rasmiy bo'lsa, savol va javoblar o'zaro bo'ladi, ya'ni oila a'zolarining ahvoli haqida so'ralmaydi. Boshqa tillardagi singari ikkinchi bosqichda fors tilida so'zlashuvchilar tomonidan ishlatiladigan salomlashuv formulalari asosan "fatik muloqot" hisoblanadi va odamlar ularni so'zma-so'z sharhlamaydi. Shuningdek, muloqotning qanday davom etishi suhbatdoshlarning intonatsiyasiga ham bog'liq holda amalga oshiriladi.

Suhbatdoshga nisbatan o'zini kamtar tutish, tavozeli, sermulozamat bo'lish, ijtimoiy holatidan kelib chiqib salomlasish, salomlashuvning bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi fors tili madaniyatining o'ziga xosligidir, salomlashuv nutqida fors madaniyatiga xos taoro'f yaqqol aks etadi.

## References:

1. Turdieva X. Nutqiy etiket birliklarining lingvopragmatik tadqiqi. Dissertatsiya. – Toshkent, 2020, 58-bet.
2. Saberi K. Rotine politeness formulae in Persian: A socio-lexical analysys of greetings. Leave-taking, apologizing, thanking and requesting. Dissertation. – Univercity of Cantebury, 2012, p 94-95
3. <https://aspirantum.com/blog/hello-in-persian>
4. <https://culturalatlas.sbs.com.au/iranian-culture/iranian-culture-greetings>
5. <https://core.ac.uk/download/pdf/35469332.pdf>